

O'ZBEKISTONDA FOYDA SOLIG'INI HISOBLASH USULLARI

Sirojiddin Ismaylov Isoqovich

Qulmatova Durdona Hasan qizi

Bank-moliya akademiyasi magistrantlari

Annotatsiya:

ushbu maqolada foyda solig'ini hisoblash, foyda solig'i tizimi yuridik shaxslarning foyda soliqlarini hisoblash usullari misolida hamda ularni soddalashtirish ahamiyati xususidagi fikrlar ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushunchasi, soliq kodeksi, foyda solig'i, yuridik shaxs, jami daromaddan chegirmalar.

Аннотация:

в данной статье изложены мнения относительно исчисления налога на прибыль, системы налога на прибыль на примере методов расчета налогов на прибыль юридических лиц и важности их упрощения.

Ключевые слова: налоговая концепция, налоговый кодекс, налог на прибыль, юридическое лицо, вычеты из совокупного дохода.

Annotation:

In this article, opinions are expressed on the example of methods for calculating profit tax, the profit tax system of legal entities for calculating profit taxes, as well as on the importance of simplifying them.

Keywords: tax concept, tax code, profit tax, legal entity, deductions from total income.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriyasi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini



ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan, yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'i stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ketma-ketlikdagiko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda;

YF=SST-IT, bu yerda:

YF — yalpi foyda, SST — sotishdan olingan sof tushum, IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda;

AFF=YF-DX+BD-BZ, bu yerda:

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX — davr xarajatlari, BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar);

UF=AFF+MD-MX, bunda: UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD — moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to'languncha olingan foyda;


STF=UF+FP-FZ, bunda: STF — soliq to'laguncha olingan foyda; FP — favqulodda vaziyatdan olingan foyda; FZ — favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.



Yilning sof foydasi, korxona foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonanig o'zida qoladi.

Jami daromaddan chegirmalar. Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Soliq turlari bo'yicha 2024-yil I chorak davomida budjetga tushgan tushumlar
(mlrd so'mda)



1-rasm. 2024 -yil I chorak budjet tushumlari¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4086-son qaroriga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi yoki obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligini tolashdan toliq ozod qilish korinishidagi vaqtinchalik imtiyozlarga ega bolgan yuridik shaxslar yuridik

¹ <https://soliq.uz/>

shaxslardan olinadigan foyda soligini imtiyozlar amal qilish muddati tugagunga qadar ikki baravar pasaytirilgan stavkada tolaydilar.²

Hozirgi kunda yuridik shaxslar uchun soliq yukini kamaytirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qancha imtiyozlar berilmoqda. Ular quyidagilar:

Aylanmasi 1 milliard soʻmdan oshib, umumiy soliq toʻlash tartibiga oʻtgan korxonalar yil davomida foyda soligʻini 2 baravar kam toʻlaydi. Bu esa ayni kunda mamlakatimizda faoliyat koʻrsatgan 370 ming tadbirkorga yengilliklar yaratadi. Shu bilan birga tez oʻsib borayotgan yuqori salohiyatli oʻrta korxonalar sonini hozirgi 3,5 mingtadan 10 ming taga yetkizish imkoniyatlari kengayadi.

Bu borada yana bir qulaylik 2023 yil 1 yanvardan kichikdan oʻrta biznesga oʻtgan korxonalar ikki yil davomida foyda soligʻining 20 foizini toʻlaydi.

Tovar (xizmat) larni eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga, eksportdan olingan daromadning jami daromaddagi ulushidan qatʼiy nazar, 0 foiz miqdorida soliq stavkasi boʻyicha soliq solinadi. Bu turdagi soliq imtiyozlarini yana bir qanchasini keltirib oʻtish mumkin.

Ushbu soliq imtiyozlaridan maqsad mamlakatimizda rivojlanib borayotgan korxonalarni oʻz xarajatlarini qoplashga yoʻnaltirish va yanada koʻplab ishchi oʻrinlarini yaratib qiymat yaratish, aholi bandligini taʼminlab farovon hayotga erishishdir. Shuningdek koʻpgina korxonalarimiz uchun foyda soligʻi boʻyicha AQSH tajribasini, yaʼni tabaqalashtirilgan soliq toʻlashni qoʻllash, fermer va kichik biznes xoʻjaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida hisoblangan soliq summasini shu biznesni yanada kengayirish va jalb qilishga yoʻnaltirsa, ishlab chiqarish sohasi yanada kengayib aholi sotib olishi lozim boʻlgan oziq –ovqat mahsulotlarining tannarxi pasayishiga olib kelinadi va pirovard maqsadimiz yurtboshimiz taʼkidlaganidek farovon hayotga erishishga amaliy dastak boʻladi.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi –T.: «Norma» 2020.
2. A.V.Vahobov, A.S.Joʻrayev. Soliqlar va soliqqa tortish.oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik. TMI. 2009.
3. D.D.Pashaxodjayeva. Foyda soligʻi boʻyicha kechiktirilgan soliq aktivlari hisobini xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida takomillashtirish. Maqola.2022.
4. <https://soliq.uz/>
5. Ozbekiston Respublikasi Davlat soliq qomitasi 25.01.2019.

² Ozbekiston Respublikasi Davlat soliq qomitasi 25.01.2019-y.

